

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

Navoiy davlat pedagogika instituti

Rektori *M.B. Kalonov*

2023 yil 05 09

tasdiqlanib o'yxatga olindi. № *BJT 208*

2023 yil 09 09

BOLALAR JISMONIY TARBIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110200-Maktabgacha ta'lim



(Fan/ modul kodi) BJT 208		O'quv yili 2024/2025	Semestrlar 3-4	Kreditlar 8	Ta'lim shakli Kunduzgi
(Fan/ modul turi) Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4-4 soat		
1	Fanning nomi Bolalar jismoniy tarbiyasi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 120	Mustaqil ta'lim (soat) 120	Jami yuklama (soat) 240	
2	<p>1. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsadi - Bo'lajak mutaxassis kadrlarga "Bolalar jismoniy tarbiyasi" fani bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish, umumijismoniy va maxsus pedagogik bilimlar bilan qurollantirish. fan doirasida talabalar ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda nazariy bilimlarni egallashlari va amaliyotda qo'llashlari uchun ilg'or tajribalardan samarali foydalanish kabi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va daryo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;</p> <p>umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmurini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;</p> <p>har bir bola yosh xususiyatini inobatga olgan holda jismoniy tarbiya mashqlarini tanlab olish va mashg'ulotlarda samarali qo'llash tadbirlarini ishlab chiqish;</p> <p>bolalarni har tomonlama jismoniy tarbiyalashda inson jismoniy tayyorgarligi uchun keng imkoniyat yaratish qonuniyatlarini o'rganish;</p> <p>jamiyat va davlatning jismoniy tarbiya mazmuni hamda natijasiga bo'lgan talablarini aks ettiradigan o'quv qo'llanma, darslik va me'yorlar yaratish.</p> <p>Ushbu dasturning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yurutuvchi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda xizmat qiladi.</p>				

II. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlar)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

III-semestr

1-Mavzu: Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining predmeti va asosiy tushunchalari

Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining predmeti. Bolalar jismoniy tarbiyasining ahamiyati. Jismoniy tarbiya maqsadi, vazifalari va tamoyillari.

Jismoniy rivojlanish. Jismoniy kamolot, jismoniy ta'lim.

Jismoniy tarbiya bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

2-Mavzu: Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining ilmiy nazariy asoslari

Bolalar jismoniy tarbiyasi ilk yoshdagi va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning quyidagi psixofizologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi: organizmning ish qobiliyati imkoniyatlari, yuzaga keluvchi qiziqish va ehtiyojlar, ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obraz va mantiqiy tafakkur formalari, ustun turuvchi faoliyat turining o'ziga xosligi, bu faoliyat rivojlanishi bilan bog'liq ravishda bola psixikasida muhim o'zgarishlar kechadi va "Bolaning yangi oliy rivojlanish bosqichiga o'tishi"ga tayyorlanadi.

3-Mavzu: Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining tadqiqot metodlari

Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining tadqiqot metodlari. Kuzatuv, maktabgacha ta'lim muassasasi ish hujjatlarini o'rganish, anketa, anketa turlari, pedagogik eksperiment, pedagogik eksperimentni o'tkazish bosqichlari.

4-Mavzu: Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining rivojlanish tizimi

Sharq mutafakkirlarining jismoniy tarbiya haqidagi qarashlari. Xorijiy davlatlarda bolalarga jismoniy tarbiya berish tizimining rivojlanishi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiya berish tizimining rivojlanishi.

5-Mavzu: Xorijiy davlatlarda bolalarga jismoniy tarbiya berish tizimining rivojlanishi

Xorijiy davlatlarda bolalarga jismoniy tarbiya berish tizimining rivojlanishi.

6-Mavzu: Bolalar jismoniy tarbiyasida ta'lim - tarbiya berish tamoyillari.

Ta'lim metodlari va usullari

Ta'lim metodlari va usullari. Jismoniy tarbiya tizimida ta'lim - tarbiya berish tamoyillari. Ta'lim metodlari va usullari tasnifi. Ko'rgazmali, amaliy va og'zaki

metodga oid usullar. Harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash.

7-Mavzu: Jismoniy tarbiya vazifalari va vositalari

Bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari. Jismoniy tarbiya vositalarining umumiy tasnifi haqida bilim berish. Jismoniy tarbiyaning maqsadi - har tomonlama yetuk, jismoniy jihatdan barkamol ma'nan va ruhan sog'lom avlodni shakllantirish va tarbiyalashdan iborat. Bolaning yoshi, fiziologik hamda ruhiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish, ta'limiy hamda tarbiyaviy vazifalarni hal etadi. Ular bolada ratsional, anglanilgan harakatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, harakat tajribasini to'plash va undan kunora hayotda foydalanish imkoniyatini hosil qiladi. Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri-bolani sog'lomlashtirish vazifasidir.

8-Mavzu: Jismoniy mashqlarning xarakteristikasi. Jismoniy mashqlarning paydo bo'lishi

Jismoniy mashqlarning mazmuni. Jismoniy mashqlar texnikasi. Fazoviy xarakteristika (dastlabki holat, gavda qismlarining holati, trayektoriya).

9-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish. Bolalarning harakatlari faoliyati ularda asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bog'liqdir. Bunga chaqqonlik, epcillik, kuchlilik, matonat singari sifatlarni kiradi.

10-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun gimnastika

Gimnastika hayotiy zarur harakat ko'nikmalarini tarbiyalashga imkoniyat yaratib, harakatga go'zallik, ko'rkamlilik hamda aniqlik baxsh yetadi. U epcillik, tezlik, kuch, egiluvchanlik, chidamlilik kabi ruhiy jismoniy xususiyatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi, inonani toblab, xarakter hamda tartibni shakllantiradi, xotira va tafakkurni rivojlantiradi.

11-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy harakatlar

Asosiy harakatlar - bola hayot faoliyati uchun zaruriy harakatlar majmuasi bo'lib, bola ulardan o'z faoliyatida doimiy foydalanadi. Ular safiga: emaklash, tirmashish, uloqtirish, otish, yurish, yugurish hamda sakrash harakatlari kiradi. Bolaning yoshligidan unga doimiy hamroh bo'ladigan asosiy harakatlar tabiiy ravishda organizmning salomatligini ta'minlash bilan bir qatorda shaxsning har tomonlama barkamoligiga ta'sir ko'rsatadi.

12-Mavzu: Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar va ularning guruhlari

Umumrivojlantiruvchi mashqlar - bu maxsus mashqlardir. Ular butun organizmning rivojlanishi va sog'lomlashishida muhim rol o'ynaydi va yelka kamari, gavda, oyoq kabi yirik muskul a'zolarining rivojlanishi va

mustahkamlanishiga, bo'g'implarning harakatchan bo'lishiga, muskullar taranglashuvi va bo'shashuvi jarayonini normallashtirishga yordam beradi.

Bu mashqlarning vazifasi qaddi-qomatni to'g'ri shakllantirish, butun tayanch-harakat apparatini mustahkamlash va qon aylanish, nafas olish, almashinish protsesslari, asab tizimi faoliyatini yaxshilashdan iboratdir.

13-Mavzu: Saflanish mashqlari. Qayta saflanishlar

Bolalarni saflanish va qayta saflanish mashqlariga o'rgatish

Saflanish va qayta saflanish mashqlariga turli saflanishlar, qayta saflanishlar, tuzilishlar, saf torib turishlar, burilishlar kiradi. Bu mashqlar mashg'ulotlar jarayonida bolalarni oqilona va tashkiliy ravishda joylashtirish va yurg'izish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ular intizomlilikni, birgalikda kelishib harakat qilishni, tarbiyachining ko'rsatmalarini bajara bilish mahoratini tarbiyalash vositasi bo'lib, "qator", "kolonna" "doira", "ilon izi", "diagonal", "bo'lim" (zveno) va boshqa tushunchalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Safda turib bajariladigan mashqlar tik, to'g'ri qaddi-qomatning yengil va chiroyli yura bilishni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

IV-semestr

1-Mavzu: Harakatli o'yinlar holalarda jismoniy madaniyatni tarbiyalashning asosiy metodi va vositasi sifatida

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasidir. Harakatli o'yinlar bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishiga, harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg'ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijodiy ta'sir etadi.

2-Mavzu: Harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda erishiladigan sog'lomlashtirish samarasi bolalarning o'yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog'liqdir.

3-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport o'yinlari

Sport o'yinlari-bularga volejbol, basketbol, badminton, stol tennis, futbol, hokkey kiradi. Sport o'yinlarida eng avvalo maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi, shuning uchun faqat ularbop sodda, biron qanday harakat texnikasi qoidalari, o'yinni tashkil etishning haqiqiy elementlari tanlanadi. Shu tufayli o'yin omillari katta kishilarda bo'lganidek jismoniy va asabiy zo'rikish uyg'otmaydi.

4-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etish shakllari

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarni jismoniy mashqlarga muntazam o'rgatishning asosiy shaklidir. Mashg'ulotlarning ahamiyati harakatlar

madaniyatini mujassam shakllanishi, sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni muntazam amalga oshirishdan iboratdir. Mashg'ulotlar xushchaqchaq, intizomli, atrof-muhitda yaxshi harakat qila oladigan, belgilangan vazifaga muvofiq tez va ishonch bilan, maqsadga yo'nalgan holda faoliyat ko'rsata oladigan, shuningdek, axloqiy sifatlarni va ijodiylik namoyon eta oladigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

5-Mavzu: Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tuzilishi va mazmuni. Mashg'ulotlarda bolalarni tashkil etish shakllari (frontal, guruh bo'lib va yakka tartibda) Ochiq havoda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi. Mashg'ulotlarda mashqlarni tanlashga qo'yilgan talablar. Mashg'ulotlarda jismoniy va ruhiy yuklamalar xarakteri hamda ularni moslashtirish.

6-Mavzu: Bolalarni kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni tashkil etish

Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarni tashkil etish. Ertalabki badantarbiya mashqlarini tashkil etish. Ertalabki badantarbiya mashqlarining sog'lomlashtiruvchi turlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ertalabki badantarbiya mashqlarining asosiy shakllari. Ritmik ertalabki badantarbiya mashqlari va uning turlari. Ertalabki badantarbiyaning metodik xususiyati.

7-Mavzu: Jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchining ish faoliyati

Maktabgacha ta'lim uchun mutaxassislar, maktabgacha ta'lim boshqarmalarida metodik va boshqarish faoliyati yurituvchi kadrlar tayyorlash uchun oliy o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya fakultetlarida, shuningdek, jismoniy tarbiya mutaxassislarini kasbiy tayyorgarligiga katta e'tibor qaratilgan. Jismoniy madaniyat mutaxassisining faoliyati - murakkab, ko'p qirrali jarayon, sog'lomlashtirish va ta'lim vazifalarini hozirgi zamon fan yutuqlari bilan uyg'unlikda hal etishni talab qiladi.

8-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni rejalashtirish

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning jismoniy tarbiyasi barcha xodimlar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. Barcha xodimlar, mudiridan tortib, to texnik xodimgacha hammasi har bir bolaning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash hamda jismoniy tarbiyaning boshqa vazifalarini hal qilishga da'vat etilganidir.

9-Mavzu: Jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulot ishtanmalarini tayyorlash metodikasi

Mashg'ulot ishtanmasi - konkret mashg'ulotning rejasi. Unda miqdor va

tashkiliy metodi ko'rsatmalarini hisobga olgan holda eng yaxshi samaradorlikka erishishga muvofiq bo'luvchi vazifalar va mazmun ma'lum ketma-ketlikda to'liq ochib beriladi.

10-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanish monitoringini olib borish

Jismoniy mashqlarni o'tkazishda tarbiyachi quyidagilarni harakatlarni to'g'ri va aniq tushuntirish va ko'rsatishni, komanda va farmoyish berishni; ta'limning xilma-xil usullaridan foydalanishni, xatofarning oldini olish va tuzatishni; bolalarga yordam berish va xavfsizlikni ta'minlashni; talabchanlikni bolalarga e'tiborli bo'lishni va g'amxo'rlik ko'rsatishni, pedagogik odobga rioya qilishni bilishi; bolalarning o'zini his qilish (bolaning rangiga, terlashi, nafas olishiga qarab) ni, ularning diqqati (barqarorligi, tarqoqligini, mashg'ulotlarga qiziqish (qiziqishning kamayishi, bir joyda o'tira olmasligi, ortiqcha harakatchanligini) ni; faolligi (faolligini pasayishi, ish-harakatlaridagi passivlik, jismoniy mashqlar bajarishdan bosh tortishi) ni, shuningdek, jismoniy tarbiya mashqlarining bajarilish sifati (tuyg'unlik, ritmning buzilishini, harakatlar tezligi va aniqligining pasayishi, qaddi qomati buzilishi va boshqalar) ni kuzatish lozim.

11-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi ustidan tibbiy pedagogik nazoratni olib borish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar jismoniy tarbiyasi jarayonida shifokor nazoratining asosiy vazifasi ularning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy va nerv-psixik rivojlanishini takomillashtirishning muhim omillari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi jarayonida shifokor nazoratining asosiy vazifasi ularning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy va nerv-psixik rivojlanishini takomillashtirishga ko'maklashishdan iboratdir.

12-Mavzu: Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sanitar gigiyenik sharoitlar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sanitar-gigiyenik sharoitlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning shaxsiy gigiyenasi va kun tartibi. Gigiyenaga amal qilish sog'lom turmush tarzining asoslaridan biri hisoblanadi. Bu borada ko'pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Shaxsiy gigiyena va ularni saqlash shartlari, o'smirlar o'rtasidagi gigiyenik tarbiya mohiyati, o'smirlarning shaxsiy gigiyenasini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari.

III. I. Amaliy mashg'ulotlar uchun ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

III-semestr

1. Bolalar jismoniy tarbiyasi fanining fanlar tizimida tutgan o'rnini.

2. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim tarbiya birligi va bolaning rivojlanishi.
3. Jismoniy tarbiya tizimida ta'lim tarbiya berish tamoyillari.
4. Ta'lim metodlari va usullari tasnifi.
5. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasining vazifalari.
6. Jismoniy tarbiya vositalarining umumiy tasnifi.
7. Jismoniy mashqlar.

IV-semestr

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun gimnastika.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy harakatlarning ahamiyati.
3. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlarning guruhlari.
4. Saflanish mashqlari va qayta saflanishlar.
5. Harakatli o'yinlarning turlari va mazmuni.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport o'yinlari.
7. Sport mashqlariga o'rgatish metodikasi.
8. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.

III. II. Seminar mashg'ulotlar uchun ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

III-semestr

1. Jismoniy tarbiya metodikasining metodologik, ilmiy-nazariy, psixolog-pedagogik asoslari.
2. Bolalar jismoniy tabiyasining rivojlanish tizimi.
3. Tug'ilgandan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.
5. Gimnastika jismoniy tarbiyaning metodi va vositasi sifatida va uning turlari.
6. Umumrivojlantiruvchi mashqlarning guruhlari va dastlabki holatlar.
7. Harakatli o'yin jismoniy tarbiyaning metodi va vositasi sifatida.
8. Harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi.
9. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun gimnastika.
10. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy harakatlar.

IV-semestr

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport o'yinlari.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etish shakllari.
3. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.
4. Bolalarni kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni tashkil etish.
5. Jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchining ish faoliyati.
6. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni

<p>rejalashtirish.</p> <p>7. Jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash metodikasi.</p> <p>8. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanish monitoringini olib borish.</p> <p>9. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi ustidan tibbiy pedagogik nazoratni olib borish.</p> <p>10. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sanitar gegiyenik sharoitlar.</p> <p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p style="text-align: center;"><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar</i></p> <p style="text-align: center;">III-semestr</p> <p>1. Jismoniy tarbiyaning umumiy masalalari.</p> <p>2. Jismoniy tarbiya metodikasining metodologik, ilmiy-nazariy, psixologo-pedagogik asoslari.</p> <p>3. Jismoniy tarbiya vazifalari va vositalari.</p> <p>4. Tug'ilgandan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>5. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy harakatlar.</p> <p>6. Umunirivojlantiruvchi mashqlar.</p> <p>7. Harakatli o'yinlar bolalarda jismoniy madaniyatni tarbiyalashning asosiy metodi va vositasi sifatida.</p> <p>8. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport mashqlari.</p> <p>9. Sport mashqlariga o'rgatish metodikasi.</p> <p>10. Ochiq havoda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlarga o'rgatish</p> <p>11. Bolalarni mustaqil harakat faoliyatiga o'rgatish metodlari</p> <p>12. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etishni shakllantirish.</p> <p>13. Bolalarni kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo'yicha ishini tashkil etish.</p> <p>14. Jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchining ish faoliyati.</p> <p>15. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha ishini rejalashtirish.</p> <p style="text-align: center;">IV-semestr</p> <p>1. Bolalar jismoniy tarbiyasida ta'lim-tarbiya tamoyillari. Ta'lim metodlari va usullari.</p> <p>2. Jismoniy tarbiya tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish va o'qitish prinsiplari</p> <p>3. Bolalarni saflanish va qayta saflanish mashqlariga o'rgatish metodlari</p> <p>4. Bolalarni gimnastika mashqlariga o'rgatish metodlari</p> <p>5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada umunirivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish metodikasi</p> <p>7. Bolalarni umunirivojlantiruvchi mashqlar bajarishga o'rgatish metodlari</p>

<p>8. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport mashqlari va o'yinlari.</p> <p>9. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish</p> <p>10. Jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash metodikasi</p> <p>11. Jismoniy buyumlar bilan bajariladigan umunirivojlantiruvchi mashqlarga o'rgatish metodlari</p> <p>12. Kichik, o'rta katta va maktabgacha tayyorlov guruhlarida harakatli o'yinlarni o'rgatish metodlari</p> <p>13. Sport elementlari bo'lgan harakatli o'yinlarni o'rgatish metodlari</p> <p>14. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanish monitoringini olib borish.</p> <p>15. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sanitar gegiyenik sharoitlar.</p>
<p>3</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (Shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Jismoniy tarbiya va sport amaliyotida nazariy o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishi va ulardan foydalana olishi haqidagi <i>bilimlarga ega bo'lishi</i>;</p> <p>Bolalar jismoniy tarbiyasi har bir yosh bosqichdagi bolaning potensial imkoniyatlari qonuniyatlarini o'rganib va hisobga olib, jismoniy tarbiyaning butun ta'lim-tarbiya kompleksi ilmiy asoslangan <i>dasturi talablarini (harakat, ko'nikma va malakalari, jismoniy sifatlar, ba'zi elementar bilimlarni) bilishi</i>;</p> <p>Jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama tarbiyalash ishining muhim komponenti ekanligini, ayni paytda u aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarini <i>kompleks tarzda hal etishini bilishi</i>;</p> <p>Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, <i>u davlat hujjati sifatida e'tirof etilishini bilishlari kerak.</i></p>
<p>4</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalar va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ ma'ruzalar; ✓ amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; ✓ interfaol keys-stadilar; ✓ blitz-so'rov; ✓ guruhlarda ishlash; ✓ taqdimotlarni qilish; ✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyialar
<p>5</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Talabalar bilimni baholash mezonlari talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan amaldagi</p>

baholash mezonlari asosida baholanadi.

Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni belgilangan tartibda topshirish.

6

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. -T. 2007 y.
2. Axmatov M.S. Uzlaksiz ta'limda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. -T. 2007 y.
3. Gaziyeva Z.Yu. Sport tibbiyoti. -T. "Yoshlar nashriyot uyi", 2020 y.
4. Karimov X.A. va boshq. Sport pedagogik mahoratini oshirish. -T. "Barkamol fayz media", 2017 y.
5. Miraxmedov F va boshq. Jismoniy tarbiya va sport. -T. "Ilm-ziyo-zakovat. 2020 y.
6. Normurodov N.A. Jismoniy tarbiya. -T. "Tafakkur bo'stoni". 2017 y.
7. Norov Sh.U. Sport o'yinlari. -T. "Ilm-ziyo-zakovat. 2022 y.
8. Morgunova L.I. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma – Tashkent. Ilm-ziyo - 2013 y
9. Sultonov I. Gimnastika-sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi vosita. -T. "Aloqachi", 2007 y.
10. Tadjiyeva M.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2017. - 244 b.
11. Umarov M.N. va boshq. Gimnastika. -T. "Cho'lpon", 2018 y.
12. Умаров Дж.Х. Теория и методика физической культуре, спорта. -T. 2021 г.
13. Usmonxo'jayev T.S. va boshq. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya. -T. "Shodlik", 2019 y.
14. Usmonxo'jayev T.S. Ertalabki badantarbiya -T. "Shodlik nashriyoti", 2019 y.

15. Usmanov B.H. Gimnastika darslarida innovatsion texnologiyalar. -T. "Tafakkur bo'stoni" 2013 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Salomov.R.S va boshqalar "Maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiyasi va sport ixtisosligiga kirish". Darslik T.: Meditsina nashriyoti 1990 y
2. Mahkamjonov K.M., Rasulova M.Sh. va bosh. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi". T.: "Ilm Ziyo" nash. 2006 y.
3. Mahkamjonov.K, Salomov.R, Ikromov I. Maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik T; Iqtisod-Moliya 2008 y.
4. Ma'murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi; Toshkent: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2014. -228 b.
5. Toshcheva N.T. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. [Matn]: Darslik / - Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022. -396 b.
6. Tulenova X, Xo'jayev P, Meliyev H. Maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiyasi nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya 2012 y. Darslik
7. Haydarov B.T., Xolboyeva G.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. (Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida). Darslik. - Samarqand: SamDU nashri, 2020, - 376 bet.
8. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya nazariyasi 2020. O'quv qo'llanma. SamDU nashri.
9. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari". O'quv-uslubiy qo'llanma 2019.

Axborot manbaalari

1. www.lex.uz
2. www.edu.uz
3. www.pedagog.uz
4. Ziyonet.uz
5. www.tdpu.uz

7	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil "06" "09" dagi qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas'ullar: L.N.Shaxriddinova - NavDPI, Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti p.f.b.f.d(PhD) Sh.N.Mamatov - NavDPI, Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti
9	Taqrizchi(lar): O.Q.Dovulov -NavDKvaTU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d (PhD). O.U.Raxmatov - Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d(PhD).

Kafedra mudiri:



S.N.Haydarov
(ismi, familiyasi)

№ _____